O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI
VA FOLKLORI INSTITUTI



O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI

Jurnalga 1958 yil yanvarda
Oybek asos solgan

Bir yilda olti marta chiqadi

2
2025

O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti

Toshkent - 2025

Bosh muharrir:

Nizomiddin MAHMUDOV

Tahrir hay'ati:

Maqsud ASADOV
Rahmatulla BARAKAYEV
Bahodir KARIMOV
Durdona LUTFULLAYEVA
Abduvahob MADVALIYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Yorqinjon ODILOV
Ergash OCHILOV
(mas'ul kotib)
Gulchehra RIXSIYEVA
Shomirza TURDIMOV
Boqijon TO'XLIYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Almaz ULVIY
Baxtiyor FAYZULLOYEV
Durdona XUDOYBERGANOVA
Jabbor ESHONQULOV
Berdak YUSUF
Ulug'bek HAMDAMOV
Xayrulla HAMIDOV

REZYUME. Maqolada Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida joylashgan ″Akademik Aziz Qayumov muzeyi″ning ″Navoiy va Bobur″ arxiv papkasida saqlanayotgan ″Devoni Sulton Husayn mirzo Boyqaro″ haqida so‘z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ В статье рассказывается о ″Диване султана Хусейна Мирзы Байкары″ который хранится в архивной папке ″Наваи и Бабур″ в ″Музей академика Азиза Каюмова″ расположенном в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

RESUME. The article discusses the ″Divan of Sultan Husayn Mirzo Baykhara″ which is preserved in the archive folder ″Navai and Babur″ located in the ″Academic Aziz Qayumov Museum″ at the Alisher Navoiy Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

Tayanch so‘z va iboralar: Kobul, devon, qo‘lyozma, noshir, muzey, g‘azal.
Ключевые слова и выражения: Кабул, диван, рукопись, издатель, музей, газель.
Key words and word expressions: Kabul, diwan, manuscript, publisher, museum, ghazal.

Hulkar TURDIYEVA

O‘ZBEK-TATAR ADABIY ALOQALARI TADQIQOTCHISI

Sherali Turdiyev o‘z ilmiy faoliyatining ko‘p qismini tatar adiblari hayoti va ijodini o‘rganish, o‘zbek adiblari bilan o‘zaro ta’sirlarini tadqiq qilishga bag‘ishladi. Olim shaxsiy kutubxonasining alohida katta bir qismi tatar adabiyoti hamda adiblariga ajratilgani ham buning dalilidir.

″Cho‘lpon va qardosh ziyolilar″[1] maqolasida Sherali Turdiyev Cho‘lponning qardosh xalqlar ziyolilari, matbuoti va adabiyoti bilan aloqalari g‘oyatda faol bo‘lgani, turli ijtimoiy-tarixiy sharoitda kechgan bu aloqalar shoir faoliyatiga, ijodiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini tahlil qiladi. Cho‘lponning ijtimoiy-adabiy faoliyatiga, faoliyatiga Rossiya qo‘l ostidagi barcha musulmonlarning buyuk ma’rifat islohotchisi Ismoilbek G‘aspirali hamda tatar-boshqird siyosat arbobi, tarixchi olim Zaki Validiy faoliyati va asarlari kuchli ta’sir qilgani, bu ta’sir uning sovet davrida yozgan yirik asari – ″Kecha va kunduz″ romanida ham ochiq sezilishini quyidagi iqtibosli fikr bilan dalillaydi: ″Masalan, roman qahramonlaridan biri ilg‘or fikrli jadid ziyolisi tatarlarning yangi dunyoviy ma’rifatining ahamiyati, bunda ayniqsa Ismoilbek G‘aspirali gazetasining xizmati haqida johil Miryoqubga qarata shunday deydi: ″Millatni uyg‘otish″ uyg‘onganlarning vazifasi. Qanday yaxshi gazetalar bor. Orenburgda, Qozonda, Ufada, Bokuda, Astraxanda, ayniqsa, Moskvada. Urush bitgandan keyin chetdan oldirib o‘qing. Bog‘chasaroyga besh so‘m pul yuborsangiz, bir yilgacha har yili ″Tarjumon″ keladi. Bilasizmi ″Tarjumon″ nima deydi? Tarjumon jadid gazetalarining otasi Ismoil suquvboboning gazeti. Eng eski gazet. ″Tilda, fikrda, ishda birlik″, – deydi. Ya’ni, biz musulmonlar, turk xalqlari bir til bilan gaplashaylik, ish qilaylik, deydi. Bundan yaxshi nima bor?″ (Cho‘lpon, ″Yana oldim sozimni″, T., 1991). Ismoilbek G‘aspiralining ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ta’siri Cho‘lponning jadidchilik qarashlarining yorqin ifodasi – ″Do‘xtur Muhammadyor″ (1914) hikoyasida ham seziladi″[2].

[1] Т у р д и е в Ш. Чўлпон ва қардош зиёлилар / ″Мустақиллик″ газетаси, 1992 йил 1 сентябрь.

[2] O‘sha joyda.

Sh.Turdiyev shoir Cho‘lpon 20-yillarda ayniqsa, Muhammad Hasan, Abdurahmon Sa’diy, Po‘lat Soliyev, Zarif Bashiriy, Rashid Tohiriy, Lolaxon Arslonova kabi tatar adib va jurnalistlari, Abdulla Kamol, Fotima Kamolova, Fotima Ilskaya, Mahsuma Qoriyeva singari tatar rejissyor va aktyorlari bilan yaqin aloqada bo‘lganligi, jumladan, Muhammad Hasan bilan Eski Toshkentda chiqib turgan ″Rosto″ gazetasida (1919) birga ishlagani, o‘zbek-tatar ziyolilarining o‘zaro do‘stlik kechasida tatar ijodkorlari Abdulla To‘qay, Fotih Amirxon, G‘aliasqar Kamol, Ayoz Is’hoqiy, Majid G‘afuriylar haqida nutqlar so‘zlagani, Abdulla Qodiriy To‘qayning ″Ona tili″ haqidagi she’rini tatarcha aytib bergani, Fotih Amirxonning Fatxulla hazratining kulgili xatti-harakatlarini aytib, yig‘ilgan adiblarni rosa kuldirgani, o‘zining chiroyli she’rlari va hatto qo‘shiqlari (″Zulaylik″, ″Allikuy″ nomli qadimiy tatar xalq kuylari) bilan davraga fayz bag‘ishlagani, Z.Validiy uni Ufadagi mashhur tatar madrasasi ″Madrasai Oliya″da o‘qigan bo‘lsa kerak, deb o‘ylagani borasida batafsil fikr-mulohaza yuritadi.

Mashhur tatar adibi Abdulla To‘qay ijodi O‘zbekiston adabiyoti va madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgani, uning she’rlari va asarlari o‘zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima (G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Sulton Jo‘ra, Zulfiya, Asqad Muxtor va boshqalar) qilinib, ta’lim muassasalarida o‘qitilgani, Hamza, G‘ozi Yunus, Abdulla Qodiriy kabi o‘zbek yozuvchilari uning ijodini yuksak baholab, she’rlarini yod olganlari, shoir haqida Abdurahmon Sa’diy, G‘afur G‘ulom, Zinnat Fatxullin, Uyg‘un, Abdulla Urazayev, Asqad Muxtor, Laziz Qayumov, Salohiddin Mamajonov va boshqalarning maqolalari nashr qilingani borasidagi faktlarni keltiradi[3]. Sh.Turdiyevning tatar adiblaridan Abdulla To‘qayning ijodini kengroq o‘rganganligi kuzatiladi. Quyida To‘qay asarlari haqida izlanishlar olib borgan adiblarning ijod namunalarini jadvalda keltiramiz:

Abdulla Avloniy	″Sadoqat bizda yo‘qdur″, ″Jigar so‘z″ (1916) tazminlari
Ismoil Obidiy (″Taraqqiy″ gazetasi muharriri)	″Sharq shoiri o‘rtoq Abdulla To‘qaev″ (1920) maqolasida uni Al-Maarriy, Hofiz, Hayyom, Sa’diy, Navoiylar bilan qiyoslaydi
Tavallo	″Teskari ishlarimiz″ she’ri, ″Marhum Abdlulla afandi To‘qayevning she’riga tazmin″ (1914), ″Bor so‘zlar″ she’ri
Hamza	Hamzaning ″Ramazon″ (1914), ″Qizlar va yigitlar dialogi″ she’rlari Abdulla To‘qayning ″Nasihat″ va ″Bugun bayram″ she’rlari bilan g‘oyaviy-badiiy mushtarak
S. To‘rayg‘irov	″Tuvg‘an elima″ tazmini
Lutfulla Olimiy	″Millatim″ (1914) tazmini

[3] Т у р д и е в Ш. Абдулла Тўқай Ўзбекистонда // ″Шарқ юлдузи″, 1986, 4-сон, 187 – 189-betlar.

Abdulla Qodiriy	Abdulla Qodiriyning ″Qurbonlik o‘g‘rilari″, ″Ikki og‘iz tariqatdan ham bo‘lsin″, ″Shomi domlaning oq salla tashviqotlari″, ″Xususiy maktublardan″ hikoyalari kompozitsiyasi, qahramon munosabatlari Abdulla To‘qayning ″Eshonning zori″ asariga yaqin turadi.
Cho‘lpon	Abdulla To‘qayning ″Kuz″ (1906), ″O‘z-o‘zimga″, ″Millatimga″, ″Yoshlar″ she’rlari ta’sirida yozilgan ″Ko‘klam keladur″ (1924) ″Yana qor″, ″Ko‘klam″, ″Haqiqat yo‘li bir o‘tilg‘usi″ she’rlari
Elbek	Elbekning o‘qish kitoblaridan Abdulla To‘qayning ″Ona tili″, ″Shurali″, ″Mujik uyqusi″ kabi she’rlari joy oldi.
G‘afur G‘ulom	″Abdulla To‘qay bizning ham shoirimiz″ nomli maqolasi
Uyg‘un	″Chin va yolg‘on″, ″Tilanchi″ she’rlari tarjimoni
Mirtemir	″Shoir″, ″Muhabbat″, ″Qo‘sh ot″, ″Oltinga qarshi″, ″Bir rasmga″, ″Bo‘lmasa″, ″Qishloq″, ″Yoz tongi xotirasi″, ″Ona tili″ she’rlari tarjimoni
Mamarasul Boboyev	″Sevgilimning qabr toshiga″, ″Nasihat″, ″Kuz yellari″, ″Qit’a″, ″Javob″ she’rlari tarjimoni
Turob To‘la	″Tekinxo‘rlar″ she’ri tarjimoni
Asqad Muxtor	″Mo‘jiza″ she’ri tarjimoni
Ramz Bobojon	″Bir tatar shoirining degani″, ″Sarlavhasiz″, ″Taraddud va shubha″, ″O‘z o‘zimga″, ″Kuz″, ″Bahor alomatlari″ she’rlari tarjimoni
Muhammad Serali (qozoq)	″Abdulla To‘qay haqida″ maqolasi
Abdulla Oripov	″Nurli To‘qay″ (1986) she’ri
Sherali Turdiyev	″To‘qay va adabiyoti o‘zbek″ (tojik tilida), ″Abdulla To‘qay va o‘zbek adabiyoti″, ″Abdulla To‘qay O‘zbekistonda″, ″Shoirning noma’lum nashri (Abdulla To‘qay ijodi)″, ″Nurli To‘qay Tatar shoiri A.To‘qayning 110 y.ga)″, ″Tukay – i nash poet. (To‘qay tavalludining 110 yilligiga)″, ″Hurlikni orzu qilgan shoir (Abdulla To‘qay haqida)″, ″To‘qay va o‘zbek adabiyoti″ maqolalari
Kavsar Turdiyeva	″Bayram bugun″, ″Kitob″, ″Bola bilan kapalak″, ″Zinalar″ she’rlari tarjimoni

Boshqird tilini yaxshi bilgan Sh.Turdiyev boshqird va tatar tillarida ijod qilish bilan birga, mazkur tildan tarjimalarni ham professional tarzda amalga oshirgan. Xususan, tatar xalqining buyuk siymolaridan bo‘lgan Zaki Validi To‘g‘onning ″Xotiralar″ nomli asari (o‘zbekchada ″Bo‘linganni bo‘ri yer″[4] deb nom berilgan) Sh.Turdiyev tomonidan ilk marta o‘zbek tiliga o‘girilgan. Olim turli to‘siq-qiyinchiliklar, hasadgo‘y va kaltabinlarning g‘ovlarini yengib, kitob muharriri Sharif Xolmurodning ham beminnat qo‘llab-quvvatlashlari bilan kitobni nashr qildirishga erishgan. Kitob muharriri o‘zi ham xotiralarida mazkur tarjima asar juda ko‘p qiyinchiliklarga uchrab chop etilganini ta’kidlaydi. U Adliya vazirligi tasarrufidagi ″Adolat″ nashriyotida faoliyat yuritayotgan vaqtda uning oldiga Sh.Turdiyev (U Sh.Turdiyevni o‘z xotiralarida ″akaxon″ deb eslaydi) tarjimasini ko‘tarib tashrif buyuradi. Turkiston milliy harakatining rahbari, dunyo tan olgan yetakchi sharqshunos allomalarning biri, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvar Qori va boshqa millatparvarlarning g‘oyaviy rahnamosi bo‘lgan Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning ″Xotiralar″ kitobi tarjimasi yirik nashriyotlardan biriga topshirilib, ikki yilda ham chop etilmaydi. Bunga izoh so‘ragan Sh.Turdiyevga nashriyot direktori Z.Validini tahqirlab, butunlay keraksiz manba ekanligini ta’kidlab qaytarib beradi. Shu holatni Sh.Xolmurodov shunday ta’riflaydi: ″Akaxon butun umrini milliy mustaqilligimiz uchun kurash yo‘lidagi haqiqatni ochish ishiga bag‘ishlab kelayotgan o‘ta yumshoq ko‘ngil, latif inson emasmi, bu haqida jamiyatimiz mas’uliyat yuklab qo‘ygan ziyolilar orasida shunday tor, kalta fikrlovchi, umumiy milliy g‘urur tuyg‘usidan yiroq insonlar borligidan o‘kina-o‘kina gapirib berdi. Boshqa birov shunday qo‘pol oqibat ko‘rsatgan odamni bo‘ralab so‘kkan, undan olib, bunga solgan bo‘lardi. Lekin haddan tashqari madaniyatli Akaxon bu sohadagi jonfidoligi, mehnatlari uchun ichi achishib turgan bo‘lsa-da, uf tortib, ″afsus, afsus″ deyishdan nari o‘tmasdi. Shunga o‘xshash to‘siq bizda ham yuzaga kelmasligiga to‘liq amin bo‘lmasam-da, ko‘rsatgan ishonchi uchun Akaxonga minnatdorchilik bildirib, darxol qo‘lyozma ustida ish boshlab yubordim″. Sh.Xolmurodov ham mazkur kitob nashri uchun ozmuncha yelib-yugurmadi. Nashriyot direktorini ko‘ndirish ham ancha sabr va vaqt talab etganini, asarning ahamiyati, muallifining xizmatlari to‘g‘risida ko‘plab ta’rif-tavsiflar keltirib, yalinib-yolvorib qattiq turib olishlardan keyin: ″Mayli, kitobning mazmun-mohiyatiga kafil ekansiz, uni nashr etamiz, lekin faqat ″qat’iy buyurtma″ tartibida″, deb cho‘rt kesdi menga rahbarimiz va bu niyatimizni barbod qilish usuli edi, albatta″, – deb, xotirlaydi muharrir. Jinoyatchi-qahramonlari asosan o‘zbeklardan, ularni fosh qiluvchi, mahv etuvchi ″bahodirlar″ o‘zga millatlardan bo‘ladigan tuturiqsiz detektivlar juda katta adadlarda ketma-ket bemalol chiqib yotgan nashriyotda birinchi marta aynan shu kitobga nisbatan bunday talab ilgari surilganini kuyunib eslaydi.

Zaki Validiy asari siyosiy jihatdan og‘ir zamonlarda jonini garovga qo‘yib, millati uchun aqlni shoshiradigan darajada katta ishlar qilgan ajdodlarimizga tegishli biz bilmagan ma’lumotlar ochiqlanishiga, tariximizni teranroq anglashimizga, zamonga nisbatan tanqidiy va tahliliy nigoh bilan qarashimizga xizmat qilishi aniq. Lekin bu haqiqatni sanoqli ziyolilardan boshqasi tan olmadi, ko‘pgina mutasaddilar ″rahbariyat aytgan yoki o‘zicha noto‘g‘ri talqin qilgan har

[4] А ҳ м а д З а к и В а л и д и й. Бўлинганни бўри ер (Бошқирд тилидан Ш.Турдиев таржимаси). – Тошкент: ″Адолат″, 1997.

qanday fikrga ko‘r-ko‘rona tinch ergashish usulini afzal ko‘rdilar. Sh.Turdiyev kitobning ahamiyatini tushuntirib, qanchadan-qancha ta’limiy va ilmiy mahkama, muassasalarga asarni nashr qilish iltimosi bilan bordi. Nihoyat, Xalq ta’limi vazirligidagilar xayrixohlik bildirib, nashrga buyurtmachi bo‘lishlarini ma’lum qilishdi. ″Akaxonning el-yurt orasidagi cheksiz hurmati, astoydil sa’y-harakatlari bo‘lmasa, bunga ham erishish qiyin edi. Shunday qilib, kitob nashrga to‘liq tayyor bo‘lgach, direktorimizga yana Xudoning zorini qilishga tushdim. ″Vazirlik buyurtmasi bilangina kifoyalanib qolsak, hamma o‘qib, bahra olishi kerak bo‘lgan bu asar ushbu mahkama tizimida izsiz yo‘qolib ketadi. Ommaviy kitobxon undan bexabar qoladi. Shuning uchun nashriyot o‘z hisobidan ham ancha adad qo‘shib, erkin savdoga chiqarishi zarur. Ishoning, uning bozori ham chaqqon bo‘ladi. Hatto o‘z do‘stlaringiz, tanish-bilishlaringiz ham shunday kitob nashr ettirganingiz uchun sizga rahmat aytishadi″, – dedim, uning qaysarligini yengib, yon berishga majburlash niyatida. Afsus, barcha urinishlarim bekor edi″[5].

O‘zbek va tatar xalqining adabiy aloqalari tarixi hamda vatanimiz bilan bog‘liq boshqa muhim tarixiy voqealarni bayon etuvchi bu asar ko‘pchilikning qo‘liga yetib bormaganligi achinarli hol. Keyinchalik, zamon zayli o‘zgarib, asar muallifiga nisbatan siyosiy qarshilik yo‘qolganidan keyin mamlakatimiz olimlari Zaki Validi asarlarini boshqird va turk tillaridan tarjimalariga qo‘l urdilar. Ammo Sh.Turdiyevning xizmatlari bu ishlarga debocha bo‘lganini ta’kidlash, e’tirof etish muhim.

Sh.Turdiyevning maqolalarida quyidagi o‘ziga xosliklar kuzatiladi:

– fikrlarni dalillar, muhim faktlar (turli davlatlar arxivlaridan topilgan, ko‘p hollarda o‘sha davrgacha ommaga ma’lum bo‘lmagan faktlar) orqali isbotlash;

– adiblar asarlari hamda holatni xolis ilmiy baholash;

– mustaqillikka shukronalik ruhiyati;

– poetik va prozaik asarlarning qiyosiy adabiy tahliliga ham diqqat qaratgani.

Sh.Turdiyevning o‘zbek-tatar adabiy aloqalari borasidagi izlanishlari tarix va adabiyot sohasining juda ko‘p xilqatlariga kalit bo‘la oladi. Uning ilmiy ijodini o‘rganish tarix va adabiyot sohalarida hamisha dolzarb mavzu bo‘la oladi.

REZYUME. Sherali Turdiyev 1950-yillardan umrining oxirigacha adabiy hamkorliklar bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar olib bordi, kitoblari nashridan tashqari O‘zbekiston va qardosh mamlakatlar hamda xorijiy davlatlar matbuotida dolzarb yangi faktlarga boy ilmiy maqolalari, ma’ruzalari bilan faol ishtirok etdi, adabiyot siymolarini o‘z xalqiga, qardosh xalqlarga yaqindan tanitdi. Maqolada olimning adabiy aloqalar yo‘nalishidagi ayrim tadqiqotlari tahlilga tortiladi.

РЕЗЮМЕ. Шерали Турдиев начиная с 1950-х годов и до конца своей жизни проводил значительные исследования в области литературного сотрудничества. Помимо публикации книг он активно участвовал в прессе Узбекистана, братских стран и зарубежных государств со своими научными статьями и лекциями насыщенными актуальными новыми фактами. В статье рассматриваются некоторые исследования учёного выполненные в направлении литературных связей.

RESUME. From the 1950s until the very end of his life, Sherali Turdiev devoted himself to the study of literary cooperation. He was a lively presence in the press of Uzbekistan, neighboring countries, and beyond, sharing articles and lectures filled with fresh, meaningful insights. Turdiev played a key role in introducing important literary figures to his own people as well as to kindred nations. The article examines some of the scholar’s research conducted in the field of literary relations.

[5] Х о л м у р о д Ш. Бир жасорат тарихи // ″Жаҳон адабиёти″, 2024, 6-сон, 202 – 204-бетлар.

Tayanch so‘z va iboralar: adabiy hamkorlik, o‘zbek-tatar, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, matbuot, tarjima.

Ключевые слова и выражения: литературное сотрудничество, узбеко-татарские связи, идеи просвещения, пресса, перевод.

Key words and word expressions: literary cooperation, Uzbek-Tatar, ideas of enlightenment, press, translation.

Saida KURBANOVA

SHUKRULLONING ″HASRAT BOG‘I″ DRAMASI

Shukrulloning ″Hasrat bog‘i″ dramasida 70 yillik mustabid tuzumning millat taqdiriga ko‘rsatgan fojiaviy ta’siri qahramonlar fojiasi bilan vobastalikda aks ettiriladi. Dramada zamon va shaxs fojiasi, qatag‘on zaxmi, Afg‘on urushi va Chernobil fojialari, sho‘rolar davridagi buyruqbozlik va byurokratizm, ″shaxsga sig‘inish″ning insonlar taqdiriga salbiy ta’siri kabi muammolar dramatik holatlarda bo‘y ko‘rsatadi[1]. Bir so‘z bilan aytganda, dramada nafaqat ayrim shaxslar fojiasi, balki butun bir millatning ma’naviy inqirozi masalasi badiiy gavdalantiriladi. Bu inqiroz chetdan aralashuvlar va tazyiqlar asosida, inson hayotiga bepisandlik bilan qarashlar oqibatida yuz berganligi bilan ijtimoiy fojiani o‘zida mujassam etadi. Dramaning ″Hasrat bog‘i″ deb atalishi ham ramziy ma’no kasb etib, u asar qahramonlari dard-iztiroblari hamda zamona hasratlaridan hikoya etish ma’nosi bilan birlashib ketadi.

Drama kompozitsiyasiga e’tibor qaratsak, u 3 parda, 6 ko‘rinishdan iborat. Dramada O‘lmas (o‘ldirilgan askar), Ona (O‘lmasning onasi), Murod (O‘lmasning tog‘asi, laqabi ″Murod qo‘rqoq″), Mels, Ashrafiy, Azim (O‘lmasning do‘stlari), Jamila (Melsning sevgilisi), Xoliqulov (partiya rahbarlaridan biri), Nozanin (Xoliqulovning kotibasi), Mirsoat (devonasifat odam), Ziyod (mayxo‘r), Qosim (choyxonachi) kabi personajlar ishtirok etadilar.

Shukrulloning deyarli barcha dramalarida zamon va uning qahramonlari iztiroblari, fojialari dramatik harakat orqali badiiy talqin etiladi. Dramaturg zamon va qahramon fojiasini obrazlarning ichki his-tuyg‘ulari, kechinmalari orqali yanada chuqur ochadi. ″Hasrat bog‘i″ she’riy dramasining bosh qahramonlari ikki yosh – Mels va Jamila. Ular bir-birlarini qattiq sevadi. Ammo mash’um o‘tmish bu sevishganlarni bir-biridan ayiradi. ″Melsning otasi Jamilaning otasini repressiya yillarida ottdirgan″ deb aytilgan mash’um haqiqat tufayli ikki yoshning hayoti ostin-ustun bo‘ladi. Aslida, dramaturgning bosh maqsadi ikki yosh o‘rtasidagi muhabbat va uning darz ketishidan ko‘ra ham muhimroq – ijtimoiy-siyosiy muammoni yoritishdir.

Ma’lumki, dramaning asosini dramatik harakat va konflikt, xarakterlar va vaziyatlar to‘qnashuvi tashkil etadi. Drama nazariyasi bilan shug‘ullangan olimlar konflikt, kolliziya va to‘qnashuvlarni dramatik harakatni yuzaga chiqaruvchi asos,

[1] Drama xususida o‘z davrida matbuotda bir nechta taqrizlar e’lon qilingan: И к р о м о в Ҳ. ″Ҳасрат боғ″идаги надоматлар / Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: ″Мумтоз сўз″, 2016, 456 – 459-бетлар; Т у р с у н о в Т. Шоир Шукруллонинг ″Ҳасрат боғ″и драмасига тақриз / Шукрулло ижодининг олмос қирралари, 459 – 460-бетлар.

CONTENTS

Linguistics

N. Mahmudov. The Deceived Unexpected in Literary Texts ……..3
Y. Odilov. The Philosophy of Language Policy ……14
O. Tojiev. Semantic Syncretism in Simple Sentences ……20

Literary studies

M. Khudoyqulov. The Spiritual Criteria of Mahmudkhoja Behbudi ……28
Q. Yo‘lchiev. Space and Time in Rauf Parfi's Triads ……33

Scientific information

B. Rajabova. On the Study of Turdi’s Creative Work ……..38
D. G‘ayipov. About Shuhrat Matkarim’s Story ″Maqar″ ……..44
F. Bafoev. Folk Stories about Hazrat Ali ……..48
H. Jo‘rayeva. The Edition of Husayniy’s Divan Prepared by Aziz Qayumov …..52
H. Turdieva. A Scholar of Uzbek-Tatar Literary Relations ……..57
S. Kurbanova. The Drama ″Garden of Grief″ by Shukrullo ……..62
N. Saydahmedova. Mythological Images in Muhammad Yusuf’s Poetry ……66
Sh. Olimov. The Role of Sadriddin Ayni in Jadid Historiography ……69
B. Nurbadalova. Abdurashid Abdugafurov – Scholar of Ogahiy ……..74
M. Rustamova. Floristic Imagery in Matnazar Abdulhakim’s Poetry ……..77
S. Yangiboyeva. On the Publication and Study of Religious Works ……81
A. Uralov. Asymmetry of Analytical Forms in Turkic Languages ……84
M. Abdurahmonova. Strategies and Tactics in Modern Medical Discourse ……..89
R. Madaminova. Names of Animals in the Divan of Hafiz Khorezmi ……..93
O. Ashirov. One of the Important Linguistic Sources ……99
Sh. Qahhorov. On the Etymology of the Necroponym ″Oqbuyra″ ……..103
N. Sa’dullaeva. The Problem of Transitional Dialects in Linguistics ……..107
M. Mirzaeva. On the Ethnonym *Kongirat* ……112

Doers of Science

Olim S., Davlatov O., Gafforova Z. Muslikhiddin Kutbiddinovich Muhiddinov ……...116
M. Asadov. The Happiness of Maturity ……...120
B. Fayzulloev, B. Jabborov. In Service of Two Nations ……124

Criticism. Reviews. Bibliography

B. Tuxliev. A Great Achievement in Uzbek Navoi Studies ……126

Scientific life

Kh. Nishonova. The moral and educational value of Aibek’s literary work …….131